“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Shaxslararo munosabatlar va uning jamiyat hayotidagi o‘rni

Muhayyo Raximova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti talabasi
e-mail: rahimova@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqola shaxs aslida qanday tushuncha, shuningdek muloqot qanday tushuncha ekanligini yorqin ochib beradi. Shaxslararo muloqot nima ekanligi va u qandayvujudga kelishi yorqin tasvirlab berilgan. Shuningdek shaxslararo munosabatlar jamiyat madaniyatiga qanday ta’sir o‘tkazishi va o‘rni haqida bir qancha mulohazalar keltirib o‘tadi. Maqolani o‘qish davomida o‘quvchi shaxslararo munosabatlat jamiyat madaniyatida qanday tavsiflanishi haqida, shunindek bir necha olimlarning fikrini mujassam etib o‘tadi. Shaxslararo munosabatlar jamiyatning asosiy tuzilmasi va uning ijtimoiy madaniy va psixologik rivojlanishida muhim rol o‘ynashini tasirlab beradi.

Калит сўзлар. жамият, муносабат, шахс, индивид, олим, мутаффакирлар, жамият маданияти, тил ва алоқа, урф-одат, қадриятлар, ахлоқ ва одоб, фуқаролик, элементлар, ижтимоий бирлашув, ривожланиш ва ўзгариш

Аннотация. Эта статья ярко раскрывает, что такое личность на самом деле, а также что такое общение. Ярко описывается, что такое межличностное общение и как оно возникает. Он также приводит несколько соображений о том, как межличностные отношения влияют на культуру общества и их роль. Читая статью, читатель узнает о том, как межличностные отношения характеризуются в культуре общества, а также обобщает мнения нескольких ученых. Межличностные отношения влияют на основную структуру общества и его важную роль в социально-культурном и психологическом развитии.

Ключевые слова. общество, отношение, личность, индивид, учёный, мыслители, культура общества, язык и общение, обычаи, ценности, мораль и этикет, гражданство, элементы, социальная интеграция, развитие и изменение

Annotation. This article vividly explains the concept of a person as well as the concept of communication. It provides a clear description of what interpersonal communication is and how it emerges. Additionally, it discusses the impact and role of interpersonal relationships on the culture of society, offering various perspectives on the matter. While reading the article, the

reader will gain insights into how interpersonal relationships are characterized in societal culture, incorporating the opinions of several scholars. It emphasizes that interpersonal relationships form the fundamental structure of society and play a crucial role in its socio-cultural and psychological development.

Keywords. society, attitude, personality, individual, scientist, thinkers, societal culture, language and communication, customs, values, morals and manners, citizenship, elements, social integration, development and change

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng shaxsning har tomonlama, yaxlit rivojlanishiga keng imkoniyatlar yo‘l ochildi. Shubhasizki, ushbu holat davlatimizning qator farmon va qarorlari bilan mustahkamlanmoqda. Xususan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning hayotga tatbiq qilinishi fikrimiz isbotidir. Shakllanib kelayotgan yangi avlod kadrlar misolida ham ko‘rib turibmiz.

Fuqarolik va huquqiy davlat bunyod etilayotgan hozirgi sharoitda jamiyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, madaniy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish asosida ma’naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy barkamollikni o‘zida birlashtirgan yangi inson shaxsining shakllanishi ta’minlanishi juda muhim hisoblanadi.

Avvalo, shaxs tushunchasining asl negiziga e’tibor beradigan bo‘lsak, shaxs bu idrok qila oluvchi, esda saqlay oluvchi va fikr yuritish qobiliyatiga ega mavjudotdir. Shaxs insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakati bilan boshqalardan ajralib turadigan, mavjud xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli hamdir. Insonning falsafiy tafakkuri rivojida shaxs va jamiyat munosabati muhim o‘rinda turadi. Shu o‘rinda shaxs va muloqot tushunchalariga yanada chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, shaxs – bu individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o‘ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o‘zini-o‘zi doimo inkor eta oladigan mavjudot sifatida biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql-idrok tafakkur ob’ekti hisoblanadi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni ham, katta yoshli odamni ham, mutafakkir yoki olimni ham, hattoki aqli zaif insonni ham individ deb hisoblash lozim. M.G. Davletshin tahriri ostida chiqqan “Psixologiyadan qisqacha izohli lug‘at”da ham individ ajralmas, ayrim jins, shaxs ma’nolarini anglatib, biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot sifatida izohlab o‘tilgan.

Endi muloqot tushunchasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli munosabatlari davomida bir-birlari bilan o‘zaro aloqalarga kirishish jarayoni hisoblanadi. Ya’ni har bir shaxs bir jamiyatning bo‘lagi sifatida harakatlansa, u har doim boshqa shaxslar bilan aloqaga kirishishni boshlaydi. Bu esa muloqot yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Muloqot ko‘p qirrali murakkab tushuncha

bo‘lib, B.F. Parygin ham o‘zining asarlarida ushbu fikrni yoqlab chiqqan. Muomala, munosabat va muloqotning asosiy vositasi – til. Til muloqotga kirishuvchilar o‘rtasida kommunikatsiyani ta’minlaydi. U orqali jamiyatda muloqot vujudga keladi. Endi ushbu vujudga keladigan muloqot, ya’ni shaxslararo munosabatlar va ularning jamiyatdagi o‘rni haqida chuqurroq mulohaza qilishimiz lozim.

Shaxslararo munosabatlar jamiyat madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, ular madaniyatning tarqalishi, rivojlanishi va o‘zgarishida asosiy rol o‘ynaydi. Jamiyatdagi madaniyat o‘z ichiga turli qadriyatlar, urf-odatlar, til, san’at va ijtimoiy me’yorlarni qamrab oladi. Shaxslararo munosabatlar madaniy elementlarning hayotga tatbiq etilishida va yangi avlodlarga o‘tishida bevosita ishtirok etadi. Shaxslararo munosabatlarning jamiyat madaniyatidagi o‘rnini bir qancha tarzda tavsiflash mumkin. Masalan, madaniy qadriyatlar va an’analarni saqlash va uzatish, jamoaviy identitet va ijtimoiy birlashuv, madaniyatni yangilash va o‘zgarishlarni qabul qilish, til va muloqot, emotsional aloqalar. Shaxslararo munosabatning jamiyat madaniyatidagi o‘rnini chuqur ochib berish uchun yuqorida keltirgan tavsiflarimizning har biriga alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim.

Shaxslararo munosabatlar madaniyatning avloddan avlodga o‘tishida asosiy vosita hisoblanadi. O‘zaro munosabatlar orqali ota-onalar farzandlariga, ustozlar shogirdlariga madaniy qadriyatlar, axloqiy fazilatlarni, shuningdek, urf-odatlar o‘rgatadilar. Masalan, oila ichidagi munosabatlar orqali biror xalqning milliy an’analari va qadriyatlari saqlanadi va yangi avlodga yetkazish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Shaxslararo munosabatlar jamiyatdagi turli guruhlar va ijtimoiy tarmoqlar o‘rtasida jamoaviy identitetni shakllantirishga yordam beradi. Bir guruhning a’zolari o‘rtasida do‘stlik, ish joyidagi hamkorlik yoki ijtimoiy tarmoqlarda o‘zaro aloqalar orqali madaniy o‘xshashliklar va farqlar o‘rganiladi. Bu jarayon jamiyatdagi ijtimoiy birdamlikni va kooperatsiyani mustahkamlashga yordam beradi.

Shaxslararo munosabatlar yangi g‘oyalar, trendlar va turli madaniyatlarga ochiq bo‘lish imkonini beradi. Madaniyat har doim dinamik bo‘lib, ijtimoiy muloqotlar va shaxslararo munosabatlar orqali zamonaviy tendensiyalar va yangiliklar joriy qilinadi. Masalan, globalizatsiya jarayonida turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar yangi madaniy qiymatlar yaratadi.

Shaxslararo munosabatlarda tilning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Til orqali insonlar o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini va madaniy qadriyatlarini ifodalaydi. Jamiyatdagi turli guruhlar o‘rtasida muloqot orqali yangi so‘zlar, iboralar va til me’yorlari shakllanadi. Bu jarayon madaniyatning til orqali ifodalanishini va madaniy hayotning rivojlanishini ta’minlaydi.

Shaxslararo munosabatlar bo‘yicha statistik ma’lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mustahkam ijtimoiy aloqalarga ega insonlar ruhiy barqarorlikka ega bo‘ladi. 2023-yilda Gallup so‘rovi

shuni ko‘rsatdiki, do‘stlari va oilasi bilan faol muloqot qiladigan odamlar baxtlilik darajasini 70% yuqoriroq his qiladi. Shuningdek, Skandinaviya mamlakatlarida kuchli ijtimoiy aloqalar tufayli jinoyatchilik darajasi past bo‘lib, ijtimoiy barqarorlik yuqori darajada saqlanadi. Masalan, 2022-yilda Finlyandiya Xalqaro Baxtlilik Indeksida birinchi o‘rinda qayd etildi. Shu o‘rinda Pew Research Center ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro tinchlik tashkilotlarida muvaffaqiyatli muzokaralar uchun ishonchli shaxslararo munosabatlar muhim omil hisoblanishini ta’kidlab o‘tishimiz ham lozim.

Ilgari ta’kidlab o‘tganimizdek, shaxslararo munosabatning jamiyatdagi madaniyat namunalari ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan shaxslar, turli kasb egalari, shuningdek eng ilg‘or kishilar, ziyolilar, ilm-fan ahli tomonidan yaratiladi. Bizningcha, ushbu madaniyatning jamiyat hayotidagi o‘rnini haddan tashqari bo‘rttirib yuborish ham, uni kamsitish ham xatodir. XVIII asrdayoq mashhur fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo madaniyatning ahamiyatini haddan tashqari bo‘rttirishga qarshi tabiiy insonning axloqiy ustunligi g‘oyasi va tabiatga qaytish shiorini ilgari surgan edi. Shunday ekan, har qanday munosabatlar jamiyat madaniyatiga yoki ijobiy, yoki salbiy ta’sir etishi mumkin. Buni bo‘rttirib yuborish esa, albatta, xato hisoblanadi. Shaxslararo munosabatning ham jamiyat madaniyatidagi o‘rnini haddan tashqari bo‘rttirib yubormaslik lozim. Bu masalada har doim muvozanatni saqlab, barqarorlikni ushlab turish lozim.

O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda shaxslararo munosabatlar va jamiyat hayotidagi madaniyat sezilarli darajada rivojlandi. Fuqarolar va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik kuchayib, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” kabi dasturlar aholi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mahalla institutining roli ortib, ijtimoiy birdamlik mustahkamlanmoqda. Milliy va diniy bag‘rikenglik tamoyillari asosida madaniy muloqot kengayib, xalqaro festival va almashinuvlar orqali O‘zbekiston madaniy merosi dunyoga tanitilmoqda.

Ta’lim tizimida axloqiy va ma’naviy tarbiyaga e’tibor kuchayib, yoshlarning ijtimoiy faolligi oshmoqda. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi shaxslararo muloqot shakllarini o‘zgartirib, erkin fikr almashish va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Umuman olganda, davlat siyosati va texnologik taraqqiyot jamiyat madaniyati va shaxslararo munosabatlarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham jamiyatning rivojlanishi uchun bir qator normalar belgilangan. Masalan, Konstitutsiyamizning 67-moddasini ko‘rish mumkin. Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli.

Xulosa. Shaxslararo munosabatlar jamiyat madaniyatining o‘ziga xos va mustahkam asosidir. Ular madaniyat va qadriyatlar, urf-odatlar saqlashda va o‘zgartirishda, yangi g‘oya va tendensiyalarni o‘rganish va qabul qilishda, shuningdek, til va emotsional aloqalar orqali jamiyatning umumiy madaniy muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Shaxslararo munosabatlar, shuningdek, madaniyatning dinamik rivojlanishini va o‘zgarishini ta’minlaydigan ijtimoiy aloqalar hisoblanadi. Shunday ekan, shaxslararo munosabatlar jamiyatda har doim muhim rol o‘ynab kelgan va bundan so‘ng ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

O‘zbekistondagi shaxslararo munosabatlar va jamiyat madaniyatini yuqoridagi xalqaro statistik ma’lumotlar bilan taqqoslaganda, biz ijtimoiy aloqalarning inson farovonligi va jamiyat barqarorligidagi muhim rolini ko‘rishimiz mumkin. Gallup so‘roviga ko‘ra, do‘stlari va oilasi bilan faol muloqot qiladigan insonlarning baxtlilik darajasi 70% yuqoriroq bo‘lishi O‘zbekistonda ham dolzarb bo‘lib, mahalla institutining mustahkamlanishi va oilaviy qadriyatlarning ahamiyati bilan bog‘liq.

Shuningdek, Skandinaviya mamlakatlarida kuchli ijtimoiy aloqalar jinoyatchilik darajasining past bo‘lishiga xizmat qilganidek, O‘zbekistonda ham mahallalar va jamoaviy faollik orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda.

Pew Research Center ta’kidlaganidek, xalqaro muzokaralarda ishonchli shaxslararo munosabatlar muhim omil bo‘lsa, O‘zbekistonda ham diplomatik aloqalarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda madaniy muloqotning ahamiyati ortib bormoqda. Shu bilan birga, shaxslararo munosabatlarning jamiyat madaniyatidagi o‘rnini haddan tashqari bo‘rttirib yubormaslik kerakligi Jan Jak Russo tomonidan ham ta’kidlanganidek, O‘zbekistonda ham ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayonlarida muvozanatni saqlash muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy barqarorlik va madaniyat rivojiga ta’siri ijobiy bo‘lib, xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlashmoqda. Shu sababli, ijtimoiy hamkorlik, bag‘rikenglik va raqamli madaniyatni rivojlantirish orqali mamlakatda yanada barqaror va uyg‘un jamiyat shakllantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Durkheim, E. (1912). “The Elementary Forms of the Religious Life.”

Hofstede, G. (2001). “Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations.”